

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 214 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	



XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Mayliyeva Sadoqat Safayozovna

RANCH universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası v.b. dotsenti, PhD

ORCID: 0009-0000-0695-1702

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon miqyosida kambag'allikni qisqartirish masalalarini, aholi daromadlarini oshirish va ishsizlik darajasini kamaytirish strategiyalarini o'rganishga bag'ishlangan. 2023-yilda Jini koeffitsiyenti 0,35 ga ko'tarilganligi va 700 million kishi o'ta qashshoqlikda yashayotgani haqida ma'lumot beriladi. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy himoya dasturlari va davlat strategiyalari, xususan, Prezident farmonlari orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Xorazm viloyatidagi kambag'allik darajasining o'zgarishi va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, iqtisodiy o'sish, ta'lim darajasi va mehnat bozorida imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, aholi sonining o'sishi va uning iqtisodiy imkoniyatlarga ta'siri haqida fikr yuritadi, bu esa kambag'allikni bartaraf etish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: kambag'allik, aholi daromadlari, ishsizlik, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy himoya dasturlari, davlat strategiyalari, resurslar, aholi demografiyasi.

Abstract. This article examines global issues related to poverty reduction, as well as strategies aimed at increasing household incomes and reducing unemployment rates. It presents data indicating that in 2023 the Gini coefficient rose to 0.35, while approximately 700 million people continue to live in extreme poverty. The study analyzes Uzbekistan's economic development, social protection programs, and state strategies, particularly poverty reduction measures implemented through presidential decrees. Changes in poverty levels in the Khorezm region and the factors influencing these dynamics, including economic growth, education levels, and labor market opportunities, are also examined. Additionally, the article discusses population growth and its impact on economic opportunities, highlighting the need to develop new strategies to effectively address poverty.

Keywords: poverty, household income, unemployment, economic growth, social protection programs, state strategies, resources, population demographics.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы сокращения бедности в мировом масштабе, а также стратегии повышения доходов населения и снижения уровня безработицы. Приводятся данные о том, что в 2023-году коэффициент Джини увеличился до 0,35, а около 700 миллионов человек проживают в условиях крайней нищеты. Анализируются экономическое развитие Узбекистана, программы социальной защиты и государственные стратегии, в частности меры по сокращению бедности, реализуемые на основе президентских указов. Рассматриваются изменения уровня бедности в Хорезмской области и факторы, влияющие на данный процесс, включая экономический рост, уровень образования и возможности рынка труда. Также в статье анализируется рост численности населения и его влияние на экономические возможности, что обуславливает необходимость разработки новых стратегий по преодолению бедности.

Ключевые слова: бедность, доходы населения, безработица, экономический рост, программы социальной защиты, государственные стратегии, ресурсы, демография населения.



KIRISH

Jahonda mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi daromadlarini oshirish hamda ishsizlik darajasini kamaytirish orqali kambag'allikni qisqartirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Daromadlar tengsizligining statistik ko'rsatkichi hisoblangan Jini koeffitsiyenti 2022-yildagi 0,31 dan 2023-yilda 0,35 gacha ko'tarilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda yer yuzida qariyb 700 million kishi, ya'ni dunyo aholisining 8,5 foizi o'ta qashshoqlik sharoitida, kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan yashamoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, so'nggi 30 yil ichida kuniga 6,85 dollardan kam daromadga ega bo'lgan aholi soni, afsuski, deyarli o'zgarmagan. Dunyo aholisining o'sib borishi va ularning turmush darajasini yaxshilashning jahon iqtisodiyoti taraqqiyotiga ta'sir darajasini chuqur o'rganish ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Jahon miqyosida mintaqaning mavjud resurslaridan samarali foydalangan holda aholini ish bilan ta'minlash va ularning daromadlarini oshirishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lamiga tobora kengayib bormoqda. Mintaqada kambag'allikni qisqartirishda aholi daromadlaridan samarali foydalanish tendensiyalarini tahlil qilish, shuningdek, aholi daromadlarini oshirish orqali kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar hamda tashkiliy-iqtisodiy modellarni takomillashtirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda aholi daromadlaridan samarali foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli¹ Farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli² Farmoni [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-sonli³ qarori [3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-son⁴ Farmoni [4], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-son⁵ qarori [5] hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag'allik darajasi va uning dinamikasini o'rganish zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda kambag'allik faqat daromad yetishmasligi sifatida emas, balki inson salohiyatining cheklanishi, ijtimoiy inklyuziya darajasining pastligi hamda institutsional nomutanosibliklar bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvning konseptual asoslari Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan "imkoniyatlar yondashuvi"da keng yoritilgan bo'lib, unda kambag'allik shaxsning asosiy hayotiy imkoniyatlaridan mahrumligi sifatida izohlanadi. Senning ushbu yondashuvi kambag'allikni baholashda faqat monetar ko'rsatkichlar bilan cheklanmaslik zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Jahon banki iqtisodchisi Martin Ravallion tadqiqotlarida kambag'allik darajasining o'zgarishi iqtisodiy o'sish sur'atlari, daromadlar taqsimoti va davlat ijtimoiy siyosati o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik orqali izohlanadi. Uning ishlari kambag'allikni qisqartirishda iqtisodiy o'sish muhim shart bo'lsa-da, u yetarli emasligini, daromadlar tengsizligi yuqori bo'lgan sharoitda o'sish natijalari aholining kambag'al qatlamlariga yetib bormasligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, kambag'allik dinamikasi tahlilida institutsional va redistributiv mexanizmlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Angus Deatonning empirik tadqiqotlari aholi turmush darajasi, iste'mol tuzilmasi va sog'liq ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Deaton kambag'allikni baholashda uy xo'jaliklari darajasidagi mikro ma'lumotlardan foydalanish zarurligini asoslab, makro ko'rsatkichlar real farovonlik darajasini to'liq aks ettirmasligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv kambag'allikning hududiy va ijtimoiy differensiasiyasini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan World Bank va UNDP tomonidan e'lon qilinadigan global hisobotlarda kambag'allikka ta'sir etuvchi omillar qatoriga bandlik sifati, inson kapitaliga investitsiyalar, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarining samaradorligi hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarining qamrovi kiritiladi. Ushbu manbalarda

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 <https://lex.uz/docs/-6600413>

3 <https://lex.uz/docs/-7131782>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-7271094>

5 <https://lex.uz/uz/docs/-7327821>

kambag'allik darajasining o'zgarishi ko'pincha iqtisodiy sikllar, inqirozlar va tashqi shoklar bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilinadi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda ham kambag'allik masalasi ko'p qirrali yondashuv asosida o'rganilgan. Djumanova R.F. aholining turmush darajasini baholashda daromad, iste'mol va ijtimoiy infratuzilma ko'rsatkichlarining kompleks tahlilini taklif etib, kambag'allikni kamaytirishda ijtimoiy siyosatning manzilliligini kuchaytirish zarurligini asoslaydi. O. Jumayev kambag'allik tushunchasining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatiga e'tibor qaratib, ushbu hodisaning faqat iqtisodiy emas, balki institutsional va siyosiy barqarorlik bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi. Sh. Salimov esa O'zbekistonda kambag'allikni baholash usullarini tahlil qilib, milliy sharoitga mos indikatorlar tizimini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili kambag'allik darajasining o'zgarishi ko'p omilli jarayon ekanini, uning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional determinantlari o'zaro uzviy bog'langanligini ko'rsatadi. Ushbu ilmiy yondashuvlar maqolada kambag'allik dinamikasini kompleks tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda kambag'allikni qisqartirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining rolini oshirishni tahlil qilish jarayonida kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida kambag'allik darajasining o'zgarish dinamikasiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bu omillarni biz quyidagicha bir qancha turlarga ajratdik. Bular:

1. Iqtisodiy o'sish;
2. Ijtimoiy himoya dasturlari;
3. Ta'lim darajasi;
4. Mehnat bozoridagi imkoniyatlar;
5. Qishloq xo'jaligi;
6. Migratsiya;
7. Sog'liqni saqlash xizmatlari;
8. Investitsiyalar;
9. Tabiiy resurslar.

Aholi soni oshsa, tabiiy resurslar, suv, oziq-ovqat, ish joylari va infratuzilma kabi resurslarga talab ortadi. Agar resurslar ta'minoti oshayotgan aholi sonini qondira olmasa, bu kambag'allikning oshishiga olib keladi. Mamlakat bu jarayonlarda muvozanatni saqlay olmasa, aholi kambag'al ahvolga tushishi mumkin. Aholi sonining ortishi iqtisodiy imkoniyatlarni kamaytirishi yoki oshirmasligi ham mumkin. Shu o'rinda O'zbekiston va Xorazm viloyati aholisining o'sish dinamikasiga e'tiborlaringizni qaratishni xohlar edik. Quyidagi 1-rasmda O'zbekiston va Xorazm viloyati aholisining 2010–2024-yillardagi o'sishi davom etishini guvohi bo'lishimiz mumkin bo'ladi. Bu, o'z navbatida, oziq-ovqat va boshqa shu kabi muammolarga duch kelmaslik uchun yanada samarali islohotlar joriy qilishimiz kerakligidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati aholi soni, ming kishi hisobida (2010-2024-yillar kesimida)⁶

6 www.Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlarnasi



Barchamizga ma'lumki, aholi sonining o'sishi iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy xizmatlar taqdim etish imkoniyatlarini oshiradi. O'zbekiston Respublikasi aholisi 2010-yilda 28 001,4 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yil holatiga 37 563,8 ming kishini tashkil qilgan bo'lib, bu 2010-yilga nisbatan 1,32 martaga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich, o'z navbatida, Xorazm viloyatida 2010-yilda 1 561,6 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yil holatiga 2 100,2 ming kishini tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan 1,28 martaga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

Aholi soni oshib borgan sayin ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarga talab ham oshadi. Aholi sonining o'sishi kambag'allik darajasiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy hol. Agar iqtisodiy o'sish aholi sonining o'sishidan ortda qolsa, bu kambag'allik darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Xorazm viloyati asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hudud bo'lib, shuning uchun ham iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan bo'ladi. Kambag'al oilalarda bolalar sonining ko'p bo'lishi ularning ta'lim va boshqa zarur ehtiyojlar uchun xarajatlarini ko'paytiradi, bu esa ularning iqtisodiy ahvolini yanada yomonlashtirishi mumkin. Shu o'rinda viloyatimiz aholisining tumanlar kesimidagi o'sish dinamikasi haqidagi quyidagi 1-jadvalga e'tiborlaringizni qaratishingizni so'rab qolar edik (1-jadval).

1-jadval. Xorazm viloyati aholisining o'sish dinamikasi, ming kishi hisobida (2010-2024-yillar; tumanlar kesimida)⁷

Yillar Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
Urganch shahri	135,2	138	143,7	145	146,7	149,9	153,1
Xiva shahri	0	0	92,2	93,4	95,3	97	98,8
Bog'ot tumani	134,2	149,8	163,8	166,6	169,5	172,6	176,1
Gurlan tumani	125,7	136,4	147,7	149,5	151,9	154,5	157,2
Qo'shko'pir tumani	141,3	156,9	171,6	173,7	176,1	178,9	182,3
Urganch tumani	160,8	178,7	197,5	201,2	205,5	209,2	213,5
Xazorasp tumani	208	227,4	247,7	196,9	198,7	202,2	206
Tuproqqal'a tumani	0	0	0	54,4	56,6	57,9	59,3
Xonqa tumani	154,4	170,4	185,5	188,3	191,6	194,9	198,4
Xiva tumani	197,9	217,3	144,9	147,4	149,7	152,1	154,8
Shovot tumani	139,4	154,5	169,3	171,7	174,3	177,1	180,4
Yangiariq tumani	93,1	106,3	115,6	117,2	118,9	120,9	123,2
Yangibozor tumani	71,6	79,9	87	88	89,4	90,9	92,5

Ushbu yuqoridagi 1-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, 2010–2024-yillar kesimida, yuqorida aytganimizdek, aholi soni 1,28 martaga oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich ayniqsa Xonqa tumanida yuqori ko'rsatkichga ega. Jumladan, 2010-yilda 154,4 ming kishidan 2024-yilda 198,4 ming kishigacha oshgan bo'lib, bu 14 yil ichida 1,285 martaga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyatimizdagi o'rta aholi soni o'sishidan ham yuqori hisoblanadi. Lekin, shunga qaramasdan, mazkur tuman birinchidan markazga yaqinligi, ikkinchidan qishloq xo'jaligidan foydalanishda samarali usullardan foydalanishi sababli real daromadlar darajasi bo'yicha 2-o'rinda turadi. Shuning uchun ham kambag'allik darajasi nisbatan past shakllangan.

Xorazm viloyatining Tuproqqal'a tumani 2020-yilning 11-may kuni tashkil qilinganligi va ushbu tuman Hazorasp tumani hududini ikkiga bo'lish orqali shakllantirilganligi, shuningdek, Xiva shahri 2018-yilda tashkil qilinganligi, ya'ni Xiva tumani tarkibidan alohida shahar sifatida ajralib chiqqanligi sababli ushbu yillardan oldingi aholi soni bo'yicha ma'lumotlar keltirilmagan. Aholi o'sishi va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlikda migratsiya jarayonlari ham muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, Xorazm viloyati aholisining o'sish dinamikasi kambag'allik masalasi bilan chambarchas bog'liq. Har bir tuman uchun alohida yondashuv va strategiyalar ishlab chiqish zarur, chunki har bir hududning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari o'ziga xos xususiyatlarga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kontekstida muhim ahamiyatga ega. Kambag'allikni bartaraf etish uchun davlat tomonidan taqdim

7 www.Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

etilayotgan strategiyalar, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy himoya tizimlarining islohoti aholi farovonligini oshirishga qaratilgan. Biroq muammolar saqlanib qolmoqda, shuning uchun yangi yondashuvlar va innovatsion strategiyalar zarur.

Yuqoridagi xulosadan kelib chiqib, quyidagi takliflarni berib o'tmoqchiman:

— Tadbirkorlikni rivojlantirish: kambag'allikni qisqartirish uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish muhimdir. Ehtiyojmandlarni ishga olgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berish orqali ularni rag'batlantirish kerak.

— Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish: ijtimoiy yordam dasturlarini yanada samarali qilish, ularni manzilli va shaffof qilish zarur. Raqamli tizimlar yordamida ijtimoiy yordamning taqdim etilishi va monitoringini kuchaytirish lozim.

— Ta'lim va malaka oshirish: aholining ta'lim darajasini oshirish va kasbga tayyorlash dasturlarini kengaytirish, bu orqali bandlik imkoniyatlarini oshirish kerak.

— Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish va moliyaviy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

— Mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlash: mahalliy aholi va jamoalarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish muhimdir.

— Innovatsion yondashuvlar: raqamli texnologiyalar va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni davlat siyosatiga integratsiyalash xizmatlar ko'rsatish va javobgarlikni yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu takliflar respublikamiz va mintaqamizda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-7131782>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-7271094>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-7327821>
6. Djumanova R.F. "Aholi turmush darajasi: ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari" // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. — T., 2008-yil. — 11-b.
7. Jumayev O. "Kambag'allik tushunchasini tushunishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati" // "Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari" jurnali, 2024-yilning may oy. — 15-b.
8. Salimov Sh. "Kambag'allik va uni O'zbekistonda baholashga yondashuvlar" // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — T., 2021-yil. — 35–39-b.
9. Husanova H.T. "O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish tendensiyalari" // Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 2020-yil. — 15–21-b.
10. www.stat.uz — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
11. www.uza.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
12. www.ceep.uz -O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi xuzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.
13. <https://lex.uz> ma'lumotlari.
14. www.Xorazmstat.uz ma'lumotlari.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100